

JADID ADABIYOTIDA TA'LIM VA TARBIYA MASALALARI

Muxlisa Nasimova

*Jahon iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti
Jahon iqtisodiyoti va Xaqaro iqtisodiy munosabatlar
fakulteti 1-kurs talabasi*

Anotatsiya: *Ushbu maqolada jadid adabiyotida ta'lim va tarbiya masalalari tahlil qilingan bo'lib, ayrim asarlar misolida fikrlar dalillangan.*

Kalit so'zlar: *Milliy uyg'onish davri, Behbudiy, G'ulom Zafariy, Ibrat, So'fizoda, ta'lim, tarbiya, ayollar erkinligi*

Abstract: *In this article, the issues of education and training in modern literature are analyzed, and the ideas are proved on the example of some works.*

Key words: *National renaissance period, Behbudi, Ghulam Zafari, Ibrat, Sufizoda, education, training, women's freedom*

O'zbek adabiyotida Milliy uyg'onish davri XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida boshlangan madaniy va ijtimoiy jarayon bo'lib, bu davrda o'zbek xalqining milliy o'zlikni anglash, o'z madaniyatini, tili va tarixini tiklash, va yangi zamonaviy fikrlarni shakllantirish yo'lidagi harakatlar kuchaygan. Milliy uyg'onish, faqat adabiyotda emas, balki barcha sohalarda — siyosat, iqtisodiyot, ta'lim, madaniyat va ijtimoiy hayotda — yangi o'zgarishlarni olib keldi. Milliy uyg'onishning boshlanishi adabiyotda milliy o'zlikni his etish, xalqning madaniyati, urf-odatlar va tarixiga qaytish, uning salohiyatini ochish kabi masalalarni o'z ichiga olgan katta ijtimoiy va madaniy jarayon edi. Jadid adabiyotida ta'lim va tarbiya masalasi katta ahamiyatga ega bo'lib, bu masala o'sha davrning o'zgaruvchan ijtimoiy va madaniy sharoitlari bilan chambarchas bog'liqdir. Jadidchilik harakati o'zida yangi fikr va qarashlarni ilgari surgan bo'lib, ta'lim va tarbiyani zamonaviy talablarga moslashtirishga intilgan. Jadid adabiyotida ta'lim va tarbiya, avvalo, ilm-fan, aqliy taraqqiyot va ma'rifatni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Jadidlar, ilm olishni millatni taraqqiyotiga olib boruvchi eng muhim omil deb bilishgan. Ta'limni o'zgaruvchan zamon sharoitlariga moslashtirish, xalqni zamonaviy bilimlar bilan ta'minlash zarurligini ta'kidlaganlar. Bu davrning ilg'or fikrli kishilaridan bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Saidahmad Vasliy Samarqandiy, Abduqodir Abdushukur o'g'li (Abdushukurov) Shakuriy, G'ulom Zafariy, Ubaydulla Asadullaxo'jayev, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev, Abduqodir Shukuriy, Is'hoqxon To'ra ibrat, Fayzulla Xo'jayev, Abdulvohid Burxonovlar o'z ijod namunalari va ilmiy izlanishlari bilan ta'lim va tarbiya sohasida bir qancha o'zgarishlar qildilar.

Jadid ma’rifatparvarlari o’z davrida mavjud an’anaviy ta’lim tizimini tanqid qilib, yangi dars usullarini ilgari surishgan. Jadidlar ta’limda ilmiy asoslangan, amaliyotni ko’proq qo’llaydigan tizimni yaratishni taklif etganlar.

Jadidchilik harakati o’z milliy ta’lim tizimini yaratishga qaratilgan edi. Bu borada jadidlar, Turkiston hududida o’zbek tilida bilim berish, milliy qadriyatlarni o’rgatish, o’zbekistonlik yoshlarni zamonaviy ilmlar bilan tanishtirishni yo’lga qo’yishdi. Shuningdek, diniy ta’limni ilmiy bilimlar bilan birlashtirish g’oyasini ilgari surishgan. Jumladan, Mahmudxoja Behbudiyning “Risolayi asbobi savod”, “Muntaxabi jug’rofiyayi umumiy”, “Kitobat ul-atfol”, “Muxtasar tarixi islom”, “Madhali jug’rofiyayi umroniy”, “Muxtasar jug’rofiyayi Rusiy”, Is’hoqxon To’ra Ibratning “Jome ul-xutut”, “Tarixi Farg’ona”, Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Turkiy Guliston yoxud axloq”, Fitratning maktab o’quvchilariga mo’ljallangan “O’qu”, “O’zbek tili qoidalari to’g’risida bir tajriba: „Sarf”, “O’zbek tili qoidalari to’g’risida bir tajriba: “Nahv”, “Eng eski turk adabiyoti namunalari”, “O’zbek adabiyoti namunalari”, “San’atning manshai”, Munavvarqori Abdurashidxonovning “Adibi avval”, “Adib us-soniy”, “Usuli hisob”, “Havoyiji diniya”, “Yer yuzi” singari asarlari orqali milliy ongini uyg’otishga, xalqni birlashtirish, uning tarixiy va madaniy merosini hurmat qilish, kelajakda o’zini o’ziga xos millat sifatida rivojlantirish uchun zarur bo’lgan bilim va g’oyalarni targ’ib qilishga undashgan.

Jadid adabiyotida ayollarning ta’lim olish haqida ham ko’pgina masalalar ko’tarilgan. Jadidchilik harakatining asosiy g’oyalaridan biri, ayollarning ta’limini rivojlantirish edi. Bu masala orqali jamiyatda ayollarni erkinroq, o’z huquqlarini angelaydigan, jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etadigan qatlam sifatida ko’rish g’oyasi ilgari surildi. Masalan, Hamzaning “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari”, G’ulom Zafariyning “Vannaycha”, “Halima” singari asarlari, So’fizodaning “O’qing onalar” singari she’rlari buning yaqqol misolidir.

Ma’rifatparvar adib Muhammadsharif So’fizoda ayollarimiz va qizlarimizning o’sha davrdagi holatiga achinib ularning ilm-fan egalari bo’lishlarini orzu qiladi:

Bechora ona bo’lg’uchi qobila qizlar,
Nozik qo’liga olmay, o’tar xoma va daftar.
Ibrat ko’zimiz ko’r, haqiqat qulog’imiz kar,
So’z to’g’risi shul, bizda bor avra va na astar

Shu bilan bir qatorda ularni o’qishga da’vat etadi:
Muncha yomon sho’rladi, peshonalar,
Qizlarimiz joriyayi xonalar,
Siz edingiz jonlara jononalar,
Qadringizni bilmadi debonalar.
Qumri bilan bulbulu bedonalar,
Yaxshi o’qir, siz ham o’qing, onalar.

Jadid adabiyotida tarbiyaning ahamiyati ham katta edi. Ta'lim faqat bilim berish emas, balki ma'naviy va axloqiy tarbiya masalalariga ham e'tibor qaratilgan. Jadidlar, yoshlarni axloqiy va ma'naviy jihatdan tarbiyalashni, ularni to'g'ri fikrlash va halol yashashga o'rgatishni muhim deb hisoblashgan. Jadid adabiyoti ta'lim va tarbiya masalalariga yangicha yondoshuvni olib kirdi. Ta'limni yangilash, ilm-fanni rivojlantirish, milliy qadriyatlarni o'rgatish va ayollarning ta'lim olish huquqlarini ta'minlash kabi g'oyalar jadidchilik harakatining asosiy maqsadlaridan biri bo'ldi. Jadid adabiyotida ta'lim va tarbiya masalasi bugungi kun ta'lim tizimi uchun ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, u o'zida o'zgarishlarga ochiq, zamonaviy va ma'rifatli jamiyatni yaratish g'oyalarini aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Mirvaliyev.S O'zbek adiblari,-T.:O'zbekiston Fanlar Akademiyasi „Fan“,1993.
- 2.Qosimov.B, Ahmedov.S, Dolimov.U. Tanlangan asarlar.-T.: Ma'naviyat.1999.
- 3.Husaynxon.O.Muhammadsharif So'fizoda. Namangan. 2007.